



MUROJAATNOMA

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAHBARLARIGA MUROJAAT !!!

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning Mehnat huquqlari ta’minlanishi va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi prinsipiga qa’riy rioya etilishi qonun bilan himoyalanaadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida: *“Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani sh huquqiga ega”* ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Bu borada eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 127-moddasiga asosan ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug‘i bilan rasmiylashtirilishi va buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo‘lishi belgilangan.

Amaliyotdagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishchi xodimlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq qonun buzilishiga duch kelinmoqda. Ayniqsa, bunday holatlar **xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish** va **qishloq xo‘jaligi** sohalarida yuqori darajada.

Aytish mumkinki, joriy yilning yanvar-may oylarida **15 ming 131 ta** korxonalar o‘rganilganda, **200 mingdan** ortiq nolegal ishchilar aniqlangan. Bu albatta, kichkina raqamlar emas. Shundan **58 ming 588 nafar** ishchilar legallashtirildi. Shuni ko‘rsatmoqdaki, korxonalar rahbarlarini hanuzgacha fuqarolarning mehnat muhofazasi bilan bog‘liq tartiblarini to‘g‘ri tushunib yetmaganligidan dalolat.

Bundan tashqari, Sizning bu xatti-harakatingiz “xufiyona iqtisodiyot” ning rivojlanishiga olib keladi.

Ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan mehnat qonunchiligi talablarini to‘liq bajarmaslik oqibatida **ishchi xodimlarning** quyidagi asosiy huquqlaridan mahrum etilishiga sabab bo‘lmoqda:

- Mehnat stajiga ega bo‘lmaslik va pensiya tayinlanmaslik;
- Noqulay mehnat sharoitlariga duch kelish;
- Bola parvarishi, homiladorlik, tibbiy va mehnat ta‘tili pullaridan mahrum bo‘lish;
- Uy, mashina yoki boshqa ehtiyojlar uchun kredit ololmaslik;
- O‘zgaruvchan oylik maosh, mehnat ta‘tilsiz faoliyat va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonalar va tashkilotingizga ishga qabul qilinayotgan ishchi xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzishingiz hamda ishga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq bilan rasmiylashtirishingizni so‘raymiz.

Aks holda, xodimlarning mehnat huquqlari buzilgan deb baholanib, ish beruvchilarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddalariga asosan **javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lishini** eslatib o‘tamiz.

Hurmatli ish beruvchilar!!!

O‘zingiz va qo‘l ostingizdagi mehnatkashlarning huquqlarini poymol qilinishiga yo‘l qo‘ymang.

Hurmat bilan, Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi